# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2023-YIL — INSONGA E’TIBOR VA SIFATLI TA’LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2023-yil 31-avgust, № 182 (8525) Payshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI YANGI TAYINLANGAN XORIJIY ELCHILARNING ISHONCH YORLIQLARINI QABUL QILDI

**30 avgust kuni mamlakatimizga yangi tayinlangan xorijiy elchilar tomonidan ishonch yorliqlarini topshirish tantanali marosimi bo‘ldi.**





O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi elchisi Yuy Szyun, Malayziya elchisi Ilhom Tua Bin Ilyos, Buyuk Britaniya elchisi Timoti Smart, Turkmaniston elchisi Shodurdi Meredov va Bangladesh Xalq Respublikasi elchisi Muhammad Monirul Islomdan ishonch yorliqlarini qabul qildi.

Davlatimiz rahbari xorijiy diplomatik vakolatxonalarning yangi tayinlangan rahbarlarini O‘zbekistondagi faoliyati rasman boshlangani bilan samimiy qutladi.

Tantanali marosim O‘zbekistonning ko‘p millatli xalqi davlat mustaqilligining 32 yilligini keng nishonlayotgan paytda o‘tkazilayotgani ramziy ma’noga ega ekani qayd etildi.

Joriy yilda mamlakatimizda umume’tirof etilgan demokratik normalarga muvofiq muhim siyosiy tadbirlar — yangilangan Konstitusiyani qabul qilish bo‘yicha referendum va Prezident saylovi muvaffaqiyatli o‘tkazilgani ta’kidlandi. Ularning natijalari amalga oshirilayotgan islohotlar ortga qaytmasligini mustahkamlab qo‘ydi. Bu “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham o‘z ifodasini topdi.

O‘zbekiston yetakchisi dunyoda geosiyosiy keskinlik kuchayib, o‘zaro ishonch susayib borayotgan, turli mintaqalarda yangi nizo o‘choqlari vujudga kelib, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga tahdidlar ortayotgan sharoitda O‘zbekiston ochiq va pragmatik tashqi siyosat yuritayotganini alohida ta’kidladi.

Jahondagi barcha mamlakatlar bilan o‘zaro hurmat va amaliy hamkorlikka asoslangan munosabatlar tizimli rivojlanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar va mintaqaviy tuzilmalar bilan ko‘p tomonlama sheriklik mustahkamlanmoqda.

Joriy yilda mamlakatimizda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammiti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha xalqaro konferensiya hamda Jahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining yubiley sessiyasi bo‘lib o‘tadi.

Davlatimiz rahbari yangi elchilar vakillik qilayotgan mamlakatlar bilan munosabatlarni sifat va mazmun jihatdan mutlaqo yangi darajaga olib chiqishga doir qator muhim masalalarga e’tibor qaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Xitoydan yangi tayinlangan elchiga murojaat qilar ekan, Pekin bizning ishonchli va vaqt bilan sinalgan do‘stlarimizdan biri ekani, u bilan munosabatlar keyingi yillarda har tomonlama strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilganini qayd etdi.

— Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin janoblarining bir yil avval mamlakatimizga amalga oshirgan tarixiy davlat tashrifi hamda joriy yil may oyida Sian shahrida bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo — Xitoy” sammiti doirasidagi samarali uchrashuvimiz ikki tomonlama munosabatlarga kuchli sur’at bag‘ishladi, — dedi O‘zbekiston yetakchisi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida o‘zaro savdoni ko‘paytirish, Xitoyning yetakchi kompaniyalari bilan yuqori texnologiyalar va innovatsiyalar borasidagi sheriklikni kengaytirish, “yashil” iqtisodiyot, raqamlashtirish, sun’iy intellekt, qayta tiklanuvchi energetika, ilg‘or sanoat va infratuzilma, “aqlli” qishloq xo‘jaligi, tibbiyot va farmasevtika bo‘yicha qo‘shma loyiha va dasturlarni ro‘yobga chiqarish, fan-ta’lim va madaniy almashinuvlarni jadallashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Oktyabr oyida Xitoyda bo‘lajak “Bir makon, bir yo‘l” xalqaro forumi doirasida oliy darajali uchrashuv o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Malayziya — O‘zbekistonning Janubi-Sharqiy Osiyodagi muhim hamkori.

— Munosabatlarimiz o‘zaro hurmat va an’anaviy do‘stlik tamoyillari asosida izchil rivojlanmoqda. Davlatlarimizning dolzarb global va mintaqaviy masalalarga doir qarashlari va yondashuvlari o‘xshash yoki yaqin, — dedi O‘zbekiston Prezidenti.

Elektronika va elektrotexnika, axborot texnologiyalari, oziq-ovqat sanoati, turizm, ta’lim va boshqa yo‘nalishlarda hamkorlikni yanada rivojlantirish, Malayziyaning yetakchi kompaniyalari, ayniqsa, neft-kimyo korxonalari bilan sheriklik aloqalarini kengaytirish muhimligi ta’kidlandi.

Toshkent va Urganch shaharlarida Malayziyaning “Binari” universiteti muvaffaqiyatli ishlamoqda.

Faol o‘zaro tashriflar ham oliy darajadagi uchrashuvlar uchun yaxshi zamin yaratmoqda.

Jahonda ulkan siyosiy, iqtisodiy va intellektual salohiyatga ega Buyuk Britaniya O‘zbekistonning uzoq muddatli va muhim hamkoridir.

Keyingi yillarda mamlakatlarimiz o‘rtasida do‘stlik va o‘zaro hurmatga asoslangan keng aloqalar yo‘lga qo‘yilib, barqaror rivojlanmoqda, yangi loyihalar va aniq dasturlar bilan boyimoqda.

Parlamentlar, sud idoralari, adliya, ta’lim va moliya vazirliklari o‘rtasidagi sheriklik kengaymoqda.

O‘zbekiston va Buyuk Britaniya Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar doirasida yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan.

Iqtisodiy yo‘nalishda o‘zaro savdo hajmi yuqori sur’at bilan o‘smoqda.

O‘zbekiston rahbari mamlakatimiz investisiyalar va innovatsiyalar sohasidagi ishga solinmagan ulkan salohiyatni to‘liq ro‘yobga chiqarishdan manfaatdor ekanini qayd etib, bank ishi va moliya, raqamli iqtisodiyot, “yashil” energetika, geologiya, kimyo va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda yangi qo‘shma loyihalarni amalga oshirish taklifini bildirdi.

Turkmaniston — eng yaqin qo‘shnimiz. Tili, dini va urf-odatlari mushtarak bo‘lgan xalqlarimiz ko‘p asrlar davomida yonma-yon yashab kelmoqda.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar keyingi yillarda barcha yo‘nalishlarda — siyosat, parlamentlararo aloqalar, savdo va iqtisodiyot, transport, energetika, suv va qishloq xo‘jaligida, madaniy-gumanitar sohada yangi darajaga ko‘tarilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zbekiston Prezidentining Ashxobodga yaqindagi tashrifi, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov bilan sermahsul muzokaralar strategik sheriklikning yanada chuqurlashishiga xizmat qildi.

— Biz savdo aloqalarini kengaytirish, iqtisodiy sohada hamkorlikni mustahkamlash va aniq loyihalarni amalga oshirish, yuk tashish va tranzit hajmini ko‘paytirish uchun ulkan salohiyatga egamiz, — dedi O‘zbekiston yetakchisi.

Ko‘p qirrali aloqalarni, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, boshqa yetakchi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi yaqin muloqotni va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash amaliyotini davom ettirish niyati bildirildi.

Bangladesh Xalq Respublikasi — Janubiy Osiyo va butun islom olamida tez rivojlanayotgan davlat. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi muloqotlar faollashgan.

Siyosiy va savdo-iqtisodiy yo‘nalishlarda “yo‘l xaritalari” qabul qilingan. To‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi, farmasevtika, turizm tarmoqlarida sheriklikni kengaytirish, yangi investisiya loyihalari va qo‘shma dasturlarni amalga oshirish istiqbollari belgilab olingan.

Marosim yakunida O‘zbekiston Prezidenti elchilarga mas’uliyatli va sharafli faoliyatida katta muvaffaqiyatlar tiladi, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarni yanada yuksaltirish uchun faolroq ishlash va hududlarimizga ko‘proq borishga chaqirdi.

Diplomatlar samimiy qabul, samarali faoliyatiga yaratilgan sharoitlar uchun minnatdorlik bildirib, bor bilim va sa’y-harakatlarini ikki tomonlama aloqalarni yanada rivojlantirishga qaratishlarini ta’kidladilar.

**O‘zA.**

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.*

# PREZIDENT DAVLATIMIZNING YUKSAK MUKOFOTLARINI TOPSHIRDI

*Prezident Shavkat Mirziyoyevning farmonlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligi munosabati bilan bir guruh yurtdoshlarimiz faxriy unvonlar, orden va medallar bilan, chet ellik investorlar “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlangan edi.*

30 avgust kuni Ko‘ksaroyda ushbu mukofotlarni topshirish marosimi bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari marosim ishtirokchilarini, avvalo, Mustaqillik bayrami bilan tabriklab, ezgu tilaklarini izhor etdi. Bu davrda mamlakatimiz katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgani, barcha sohada o‘zgarishlar bo‘layotgani ta’kidlandi.

— Xalq manfaatini ta’minlash, inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan harakatlarni davom ettirish maqsadida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini ishlab chiqdik. Uning loyihasini muhokamaga qo‘yganimizda 1 milliondan ko‘p takliflar kelib tushdi. Bu nimadan dalolat? Xalqimiz befarq emas. Yo‘nalishlarimizni, kamchiliklarimizni ko‘rsatib beryapti. Bu biz uchun “Yo‘l xaritasi”. Davlatga eng katta hakam — xalq, — dedi Prezident.

Bu muhim hujjatda Vatanimiz mustaqilligini va tinchligini asrash, kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, xalqimiz hayotini obod va farovon qilish, farzandlarimizni barkamol etib tarbiyalash vazifalari belgilangan.

— Sodda qilib aytganda, bizning maqsadimiz bitta: u ham bo‘lsa, Yangi O‘zbekistonda xalqimiz yayrab ishlaydigan, hayotdan rozi bo‘lib, yayrab yashaydigan davlat qurishdan iborat, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Buning zamini, avvalo, tinchlik, barqarorlik. Xalqimiz buning qadriga yetib, intilish, mehnat ruhida yashamoqda. Yangi-yangi zamonaviy sanoat korxonalari ishga tushirilmoqda. Ilm-fan, texnologiyalar, xizmat ko‘rsatish borasida muhim natijalar qo‘lga kiritilmoqda. 2022-yil yakunlariga ko‘ra mamlakatimizning iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichi 5,7 foizni tashkil etdi.

Bugungi kunda yurtimizning barcha hududida shinam uy-joylar, yo‘l va ko‘priklar, shifoxonalar, bog‘cha, maktab, madaniyat va sport markazlari bunyod etilmoqda. Tabiat qiyinchiliklariga qaramasdan, qishloq xo‘jaligi ekinlaridan mo‘l hosil olinib, oziq-ovqat xavfsizligini, xalqimiz dasturxoni to‘kinligini ta’minlashga erishilmoqda.

Shular haqida gapirar ekan, Prezidentimiz ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy bobomizning “Bu dunyoda insonlarning dardu tashvishlarini o‘ylab yashash — odamiylikning eng oliy mezonidir”, degan so‘zlarini keltirdi.

Buning ifodasini aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga, jumladan, keksa avlod vakillari, ayollar va yoshlarga g‘amxo‘rlikda yaqqol ko‘rish mumkin. Kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash, sifatli ta’lim berish, zamonaviy kasb-hunarlarga o‘rgatish, infratuzilmani yaxshilash hisobidan respublikamizda kambag‘allik darajasi sezilarli pasaymoqda.

Davlatimiz rahbari mahallalardagi ishlarni, odamlarning faolligini qayd etdi.

— Biz birinchi kundan xalq ichiga kirib boryapmiz. Ko‘p tizimlarni mahallaga tushiryapmiz. Nimaga? Mahalla — davlatchiligimizning zamini. Agar 9 ming 400 ta mahalla tinch bo‘lsa, yurtimiz tinch bo‘ladi. Investisiya ham, ta’lim-tarbiya, qurilish, obodonlashtirish ham mahallada bo‘lsa, qanday o‘zgarish bo‘ladi?! Mana, “Ochiq byudjet” orqali odamlar o‘z muammosini olib chiqib, ovoz berib, o‘zi nazorat qilyapti. Shuning uchun mahalla tizimini rivojlantirish bo‘yicha ishlarimizni qat’iy davom ettiramiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident marosimga yig‘ilganlarni nomma-nom tilga olib, davlat mukofotlari bilan tabrikladi. Ularni Yangi O‘zbekistonning chinakam bunyodkorlari sifatida qadrlashini ta’kidlab, fidokorona mehnati, yosh avlodga ibrati uchun minnatdorlik bildirdi.

— Baxt nima o‘zi? Farzandlar bag‘rida sog‘-salomat yurish, oilada, el-yurtda aziz bo‘lish, halol qilgan mehnatingning qadrini ko‘rish. Butun xalqimiz sizlar bilan faxrlanadi, sizlarga havas bilan qaraydi. Ilohim, mana shunday obro‘, mana shunday hurmat-e’tibor sizlarni hech qachon tark etmasin, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shundan so‘ng mukofotlanganlarga faxriy unvon, orden va medallar tantanali ravishda topshirildi.

Ma’lumki, milliy o‘zligimizni anglash nuqtai nazaridan Prezidentimiz tashabbusi bilan “Imom Buxoriy” ordeni ta’sis etilgan. Yurtimiz va mintaqamizda muqaddas islom dinini asrash, ilmiy merosni o‘rganish va musulmonlarga yetkazish yo‘lida ma’naviy jasorat ko‘rsatib yashagan ikki buyuk vatandoshimiz, marhum muftiylar — shayx Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon hamda shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari “Oliy Darajali Imom Buxoriy” ordeni bilan mukofotlangan edi. Tadbirda ularning farzandlariga ushbu tabarruk nishon topshirildi.

El-yurtimizda hurmatga sazovor nuroniylar, davlat xizmatchilari, olim va pedagoglar, tadbirkorlar, sanoatchilar, ijodkor va san’atkorlar, harbiylar, sportchi va murabbiylar mukofotlarni qabul qilib oldi.

Prezidentimiz ularni tabriklab, samimiy dil so‘zlari va tilaklarini aytdi.

— Bugun men sizlarning ochiq chehrangiz, baxtiyor ko‘zlari-ngizni, sizlardagi baland ruhni ko‘rib, ochig‘ini aytsam, go‘yoki o‘zim ham mukofot olgandek xursand bo‘lib turibman. Niyatim: ko‘ksingizga yarashib turgan mana shu yuksak unvon va nishonlar sizlarga yangi-yangi kuch-g‘ayrat baxsh etsin, — dedi Prezident.

Mukofotlanganlar yuksak e’tibor uchun minnatdorlik izhor etib, xalqimizga ezgu tilaklar bildirdi.

**O‘zA.**

# “ACWA POWER” KOMPANIYASI BILAN STRATEGIK SHERIKLIKNI KENGAYTIRISH REJALARI QO‘LLAB-QUVVATLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30 avgust kuni Saudiyaning “ACWA Power” kompaniyasi boshqaruvi raisi Muhammad Abunayyanni qabul qildi.

Ushbu kompaniya bilan amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish va mamlakatimizdagi ustuvor loyihalarni jadallashtirish masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari bugungi kunda O‘zbekiston energetika tarmog‘ini rivojlantirish va modernizatsiya qilishga eng ko‘p investisiya kiritayotgan “ACWA Power” bilan samarali sheriklik darajasini alohida mamnuniyat bilan qayd etdi.

Zamonaviy issiqlik elektr stansiyalari, shamol va quyosh energetikasi ob’yektlari, energetika infratuzilmasini barpo etish, “yashil” vodorod ishlab chiqarish, ilg‘or texnologik yechimlar asosida uskuna va butlovchi qismlarni mahalliylashtirish loyihalarini ilgari surishga alohida e’tibor qaratildi.

Bundan tashqari, Muhammad Abunayyan hamraislik qilayotgan qo‘shma Ishbilarmonlar kengashi doirasida Saudiyaning yetakchi kompaniya va bank institutlarini O‘zbekistonga jalb qilish borasidagi ishlarni davom ettirish muhimligi ta’kidlandi.

Uchrashuv yakunida “ACWA Power” raisi uning faoliyati yuksak baholangani va davlat mukofoti — “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangani uchun O‘zbekiston yetakchisiga chuqur minnatdorlik bildirdi.

**O‘zA.**

“FORBES”:

# O‘ZBEKISTON PREZIDENTI MAMLAKAT IQTISODIYOTINI OCHIQ VA ZAMONAVIY QILISH DASTURI BILAN OLDINGA INTILMOQDA

*AQSHning mashhur “Forbes” moliyaviy-iqtisodiy jurnalida taniqli jurnalist va tahlilchi Kennet Rapoza qalamiga mansub “O‘zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyev islohotlar uchun ko‘proq vaqtga erishdi” sarlavhali maqola chop etildi.*

## Dunyo nigohi

“O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shu yil 9 iyul kuni bo‘lib o‘tgan muddatidan ilgari mamlakat Prezidenti saylovidagi hal qiluvchi g‘alabasi davlat ijtimoiy-siyosiy tuzilishi va iqtisodiy yangilanishlarni kuchaytirishdan darak bermoqda, — deb yozadi ekspert Kennet Rapoza. — Shavkat Mirziyoyev 2016 yilda birinchi marta Prezidentlikka saylanganidan beri Amerika Qo‘shma Shtatlari bilan yaqin munosabatlarni rivojlantirdi va savdo sheriklarini diversifikatsiya qilish uchun harakat qilmoqda”.

Maqolada ushbu lavozimni egallaganidan beri Prezident Shavkat Mirziyoyev Prezident Donald Tramp davrida Oq uyga tashrif buyurgani va Vashington bilan yaqinroq aloqalarni rivojlantirayotgani qayd etilgan.

Muallif mamlakatdagi islohotlarni tahlil qilar ekan, “Bluestone” investisiya banki prezidenti Kuinn Martinning quyidagi so‘zlaridan iqtibos keltirgan: “Shavkat Mirziyoyev kemani 180 darajaga burib, yangi yo‘nalish sari boshladi. U mamlakatning barcha qo‘shnilari bilan munosabatlarni tikladi, fuqarolik jamiyatini ozod qildi va iqtisodiyotni ochiq hamda zamonaviylashtirish dasturi bilan oldinga intilmoqda. Hali ham ko‘plab muammolar mavjud, ammo bugungi kunga qadar erishilgan yutuqlar juda ajoyib”.

“Forbes”da bosilgan ushbu maqolada O‘zbekiston Prezidenti xususiylashtirishni qamrab oluvchi ulkan iqtisodiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlayotgani alohida urg‘ulangan. Ta’kidlanganidek, mahalliy chakana investorlarni jalb qilishga qaratilgan “Xalq IPO” tashabbusi va muhim davlat aktivlarini sotish ochiq, bozor iqtisodiyoti sari sezilarli siljishini bildiradi.

Jurnalda davlatimiz rahbarining mart oyida e’lon qilingan yangi xususiylashtirish rejasida turli hududlardagi 1000 ta davlat korxonasi, 1,5 ming gektar yer va 10 million kvadrat metrdan ortiq ko‘chmas mulkni sotish nazarda tutilishi haqida so‘z yuritilgan.

“Ushbu chora-tadbirlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalar hajmini oshirish, O‘zbekistonning pozitiv obro‘sini korporativ sarmoyalarni qabul qiluvchi davlat sifatida ko‘tarishdir, — qayd etadi muallif. — Shuningdek, O‘zbekiston yetakchisining fuqarolik jamiyati erkinliklari va korrupsiyaga qarshi choralarga qaratilganligi bilan ajralib turadigan boshqaruv uslubi juda ilg‘or. Mamlakat rahbari O‘zbekiston uchun muvaffaqiyat tarixiga aylanmoqda va sobiq sovet davridan qolgan an’anaviy siyosatdan qaytmoqda”.

Amerikalik tahlilchi-jurnalist, shuningdek, o‘tgan yilning dekabr oyida O‘zbekiston Prezidenti xodimlar sonini qisqartirish va byurokratiyani sarmoya, o‘sish va sarmoyani rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan yana bir tizimga aylantirish maqsadida doimiy davlat apparatida katta o‘zgarishlarni e’lon qilganini aytgan.

“Forbes” O‘zbekistonda AQSHdan investisiyalar hajmi ortib borayotganiga ham alohida e’tibor qaratgan. “May oyida sanoat gaz ishlab chiqaruvchi “Air Products” va “Chemicals of Allentown” kompaniyalari O‘zbekiston hukumati bilan “O‘zbekneftgaz” kompaniyasining qayta ishlash bo‘linmasini sotib olish bo‘yicha 1 milliard dollarlik investisiya kelishuvini e’lon qildi. Yanvar oyida “American Soybean” kompaniyasi O‘zbekistonda ilgari foydalanilmagan yerlarda soya yetishtirish va soya uni uchun qayta ishlashga 300 million dollardan ortiq sarmoya kiritishga rozi bo‘lgani xabar berilgan edi”, deb ta’kidlanadi materialda.

Maqola intihosida, “Kelgusi bir necha yil jamoatchilik ishonchini saqlab qolish uchun juda muhim bo‘ladi. O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishi kerak. Odamlar avvalgidek islohotning tez sur’atlarini kutishmoqda”, deb yozadi Kennet Rapoza.

**“Dunyo” AA.**
**Vashington**

## Dil so‘zi

# RAG‘BAT INSONNI YANGI MARRALAR, TASHABBUSLAR SARI CHORLAYDI

*Bugun yurtimizda barcha soha qatori, agrar sektorni rivojlantirish, aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Shu bois oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qulay agrobiznes muhiti hamda qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, sohada eksport salohiyatini oshirish va investisiyaviy jozibadorlikni yaxshilash, ayniqsa, agrar tarmoqda ilm-fan yutuqlarini joriy qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotir.*



Tan olish kerak, ilgari agrar sohada bunday keng qamrovli islohotlar o‘tkazilmagan. Oxirgi yetti yilda esa qishloq xo‘jaligi sohasi ulkan o‘zgarishlarga yuz tutdi. Qishloq xo‘jaligi yerlarining unumdorligini oshirish, oborotdan chiqqan ekin maydonlarini qayta foydalanishga kiritish, lalmi yerlarni o‘zlashtirish ishlariga jiddiy e’tibor qaratildi.

Ozuqabop mahsulotlar yetishtirish, agrar sohada aholi bandligini ta’minlash uchun o‘tgan davrda 200 ming gektar yer ajratilgani hamda 500 ming gektar qo‘shimcha maydon foydalanishga kiritilgani ichki bozorda narx-navoni barqaror saqlashga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar samarasida yerga, mehnatga munosabat o‘zgardi.

Prezidentimiz har bir sohaning uzoq muddatli strategiyasini belgilash bilan birga, tizim vakillarini munosib qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ham doimo tashabbus ko‘rsatib keladi. Xususan, davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligi munosabati bilan davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan bir guruh hamyurtlarimiz davlat mukofotlari bilan taqdirlandi.

Ular qatorida el-yurt xizmati yo‘lida qilingan sa’y-harakatlarimiz e’tirof etilib, kamtarona mehnatimiz “Do‘stlik” ordeniga munosib ko‘rilgani menga yanada katta mas’uliyat yukladi.

Albatta, bildirilgan yuksak ishonchni oqlash uchun mamlakatimiz taraqqiyoti hamda xalqimiz farovonligi yo‘lida bor bilim va tajribamni ishga solaman. Buning uchun qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat olib borayotgan ishchi-xizmatchilarga munosib sharoitlar yaratish, ularning huquqlarini ta’minlash, agrar tarmoqni yanada kengaytirish hamda undan unumli foydalanishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirishda tashabbuslar ko‘rsatishni o‘z oldimga asosiy maqsad sifatida belgiladim.

Umuman olganda, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqimizga yetkazish, ularni o‘ylantirayotgan masalalarni parlament darajasida ko‘tarib chiqish va agrar sohani rivojlantirishda natijadorlikka erishishda faol ishtirok etish ustuvor vazifamizdir.

**Ravshan MAMUTOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi raisi, “Do‘stlik” ordeni sohibi.**

## Boqiy satrlar

# MEN NECHUN SEVAMAN O‘ZBEKISTONNI



**Abdulla ORIPOV,**
**O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri**

Men nechun sevaman O‘zbekistonni,
Tuprog‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo.
Nechun Vatan, deya yeru osmonin,
Muqaddas atayman, atayman tanho.

Aslida dunyoda tanho nima bor?
Paxta o‘smaydimi o‘zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
Axir quyoshliku, butun Osiyo.

Men nechun sevaman O‘zbekistonni,
Bog‘larin jannat, deb ko‘z-ko‘z etaman.
Nechun ardoqlarkan tuprog‘ini men,
O‘paman, tuprog‘ing bebaho, Vatan!

Aslida tuproqni odil tabiat,
Taqsim aylaganku, yer yuziga teng
Nechun bu tuproq, deb yig‘ladi Furqat,
O, Qashqar tuprog‘i, qashshoqmiding sen?

Men nechun sevaman O‘zbekistonni?
Sababini aytgin, desalar menga.
Shoirona, go‘zal so‘zlardan oldin,
Men ta’zim qilaman ona xalqimga:

Xalqim, tarix hukmi seni agarda,
Mangu muzliklarga eltgan bo‘lsaydi,
Qorliklarni makon etgan bo‘lsayding,
Mehrim bermasmidim o‘sha muzlarga?

Vatanlar, Vatanlar, mayli, gullasin,
Bog‘ unsin mangulik muzda ham, ammo,
Yurtim, seni faqat boyliklaring chun
Sevgan farzand bo‘lsa, kechirma aslo!

# HAR BIR KUN – IMKONIYAT

*Vaqt nadir? Baxt nadir?! Vaqt — bu soniyadan soatgacha, soatdan kungacha... yilgacha... Donishmandlar aytadi, kunlar tez o‘tadi, yillar sekin. Zo‘r gap. Rostdan shunday, kun yelday yeladi. Bir daqiqa ham to‘xtamaydi. Tong otadi, kun botadi. Ko‘z ochib yumguncha. Nur tezligidaya? Muhimi, kunning qadrini anglamak. Hokdan ko‘kkacha bo‘lgan mohiyat shunda. Moziydan to kelajakkacha...*

## Munosabat



Prezidentimiz inauguratsiya marosimida “Har bir kun — bu imkoniyat, har bir kun — bu kelajak poydevori”

degan shior bugundan boshlab hayotimiz qoidasiga, har qaysi rahbarning, barcha xalq noiblari, vazir va hokimlarning kundalik faoliyat dasturiga aylanishi shartligini bejiz aytmadi. Yil — uch yuzu oltmish besh kun go‘yo tomirlaridan o‘tib boradi. Kunning qudratini, mohiyatini, azizligini, ulug‘ligini ko‘ra olmagan kishi kun ko‘rmaydi. Kunni ko‘rmagan dunyoi dunni qayerdan ko‘rsin?!

Shoir G‘afur G‘ulom yozadi:

*Aziz asrimizning aziz onlari,*
*Aziz odamlardan so‘raydi qadrin.*
*Fursat g‘animatdir shoh satrlar-la,*
*Bezamoq chog‘idir umr daftarin.*

Ushbu go‘zal misralar faqat inson umri haqida emas. Shoir falsafasida Vatan umri, taraqqiyoti ham fursatni g‘animat bilish, undan unumli foydalanish bilan bog‘liq, degan qarash mujassamdir. She’r hayotni quyoshday ulug‘lantirmoq, nurlantirmoq, go‘zallikka, farovonlik, obodlikka burkamoq haqida mushohadaga chorlaydi.

Ko‘ngil ko‘zi bilan Vatanga bir nazar tashlanga! Yuksalayotgan yangi O‘zbekistonni ko‘rasiz. Zuvalasida nurli bunyodkorliklar. Huvaydoyi farovonlik. Entikib, intilib, hayajonlanib tikilasiz. Boqib to‘ymaysiz. Qalbingizdan g‘urur toshib keladi: yangi O‘zbekiston bu!

Vaqt shuning uchun vaqtki, u to‘xtamaydi. Vaqt hech bir bekatda bir pas tin olmaydi. Xuddi yurakday! Tinimsiz yeladi. Faqat bir holat, vaqt qurilayotgan binolarda, ekilayotgan nihollarda, o‘rganilayotgan ilmda, barpo qilinayotgan maktablarda, bunyod etilayotgan yangi hayotda, uyg‘onayotgan tafakkurda yashayveradi. Qo‘lga kiritayotgan yutuqlarimizda suratlanib, jilvalanib, jozibalanib, bizga mehr ila boqib turadi.

Vatanimiz mustaqilligining 32 yillik tantanalari arafasida ana shunday nurli nigohni yana bir bor qalbdan his qildim. Davlatimiz rahbari Farmoniga muvofiq “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlanishim hayotimning eng yorqin sahifalaridan biri bo‘ldi. Bu — mavjud imkoniyatlardan, vaqtdan baholi qudrat samarali foydalanayotganimizga berilgan mukofot.

Bugungi davr shundayki, qilingan ishlar cheksiz ko‘p, biroq endi bajariladigan ishlar undan-da ko‘p. Eh-he, ishlaydigan, yashaydigan, Vatanni buyuk Vatanga aylantiradigan zamon keldi.

Vaqtning shiddati... Har bir kunning daryolanishi... Qani, iloji bo‘lsa, bir sutka 30 soat bo‘lsa, deysiz. Lekin 24 soatda ham yillarning, ha-ha, yillarning ishini bajarishga imkon topilyapti. “Bir onning bahosini o‘lchamoq uchun, Oltindan tarozi, olmosdan tosh oz”, deydiku shoir.

Vaqtning nimaligini, har bir kunning asrlarga tengligini anglagan kishi buyuk ishlarga qodir bo‘ladi. “Asrga tatigulik kun” deb yozganida Chingiz Aytmatov ana shu ulug‘ falsafani aytgan. Donishmand odam, baribir donishmand...

Surxondaryoda Rahmon Muhammadiyevni hamma biladi. Hatto butun O‘zbekistonda yaxshi tanishadi. O‘zbekiston Qahramoni. Ko‘z shifokori. Ko‘zlarga gavharlar qo‘yib, umrini gavharga aylantirgan...

— Men bir gapni aytay, — deydi Rahmon aka, — hayot shunday tezlashdiki, har kuni yangilik. Mustaqilligimizga 32 yil bo‘ldi. O‘zimning hayot qoidam bor, gapni kamaytirib, ishni ko‘paytirish kerak. Bo‘lmasa orqada qolib ketamiz. Ezma odamni yoqtirmayman. Har bir kun — bir xum oltin. Bilganga shunday. O‘qigan, ilm olgan, hayotni tushunganga shunday. Saviyasi yo‘q, savodsiz, farosatsiz kishiga “Bir kun — bir bog‘ xas-xashak”, degani. Bunday oltin davr hech bo‘lmagan. Bizga xudo berdi. Dunyoga ochildik. Jahonning eng zo‘r texnologiyalari qo‘limizda. O‘rgansangiz, kuchli bo‘lasiz. Bilmasangiz... chetga chiqib qolasiz. Sizni hech kim so‘ramaydi. Har bir kun — bir dunyo. Ilm, ilm... yana ilm. Tajriba! Har bir kuningiz o‘rganishmi, o‘sishmi... sizni hamma izlaydi. Jahon sizni kaftida ko‘taradi.

Yoshim o‘tyapti. O‘rganadigan narsalarim, o‘qiydigan kitoblarim, orttiradigan tajribalarim ko‘p. Buyog‘i yangi texnologiyalar qanchadan-qancha?! Har bir kun — imkoniyat. Katta imkoniyat. Vaqtni ko‘zning gavharidek asrash kerak. Kun bo‘yi bekor yurganlarga rahmim keladi.

Mustaqillik bayrami nishonlanyapti. Bunday shukuhli damlarda ortingga qaraysan. Qo‘lga kiritgan yutuqlaringni, boy bergan imkoniyatlaringni qiyoslaysan. Shu ma’noda, keyingi yetti yilda O‘zbekiston uyg‘ondi. Odamlar hayotga boshqacha qaraydigan bo‘ldi. Ertangi kunga ishonch yanada ortdi. Shogirdlarimga boqaman. Yoshlar... ko‘zlari yonadi. Juda ilmli. Meni hayron qoldiradi. Men uchun ikki sohadagi o‘zgarishlar boshqacha seziladi. Birovi — tibbiyot. Ikkinchisi — ta’lim. Tibbiyot bilan maktab, ochig‘ini aytsam, og‘irdan og‘ir edi. O‘gay edi, o‘gay. Nega bunaqa ekan, deb qo‘yardik. O‘ylab ko‘ring-da, tadbirkor kerakmi — kerak, savdo kerakmi — kerak, lekin inson sog‘ bo‘lmasa, yegani yuqadimi?! Kasal odamning tadbirkorlikka hushi bo‘ladimi?! Yetti yilki, hammasiga yo‘l ochildi...

Rahmon aka faqat ko‘z do‘xtiri emas. Fikr qamrovi keng inson. Gurungini eshitib, maza qilasiz. Ko‘p o‘qigan. Hayot kitobini aytmaysizmi?! Tom ma’noda qahramon. Tafakkuri olam jahon. So‘zlarini eshitib o‘tirib, zo‘r kitob qilsangiz arziydi.

— Keyingi yillarda haqiqiy tadbirkorlik paydo bo‘ldi, — deydi u. — Ishbilarmonlik uchun qulay muhit yaratildi. Natijada ma’naviyat rivojiga ham imkon tug‘ildi. Zero, qorni och, cho‘ntagi bo‘m-bo‘sh, mablag‘siz jovdirab turgan kishiga, “Lazgi”ni aytsangiz ham xush yoqmaydi. Tadbirkor har ishda madadkor-da. Vaqtiga o‘zi “xo‘jayin”, vaqtni qizg‘anadigan, soniyaning zarrasini ham pulga aylantiradigan, milliardning “bir”dan boshlanishini aytadiganlar tadbirkorlardir. Vaqt qadrini bilmagan, naqd qadrini na bilsin? “O‘z qadrini bilmagan, o‘zga qadrini na bilsin?!” Yutuqlarga qanday erishyapsiz, deb so‘rang tadbirkordan. Har soniya — yangi imkoniyat, yuksalish uchun berilgan rag‘bat, deydi. Avval... hu, avvallari bunday emas edi. Islohotlar, imkoniyatlar, erkinliklar, bozor iqtisodiyoti, raqobat, yangi davr hammaga shijoat baxsh etdi. Joni bor “jondor” yelib-yuguryapti. Rizqini ishlab topyapti. Bir kun mudragan 10 kunga orqada qoladi.

Men vrachman. Havoyi, osmoniy gapni yoqtirmayman. Bor gap shuki, ko‘z oldimizda yangi Surxondaryo bunyod bo‘lmoqda. Tog‘dan buloqlarning, soylarning toza, shifo suvlari kelyapti. Sariosiyo cho‘qqilaridan Qiziriqqacha, yana qancha-qancha tuman ichimlik suvi bilan ta’minlandi. Bu — minglab, hatto necha million odamning sog‘lig‘i, degani. Viloyatimiz odamlari yanada sog‘lom bo‘ladi. Nimasini yashiraman, hali Qiziriq, Bandixonlarda ko‘lmak suv ichayotganlar bor. Mashinalarda suv tashib keltirayotganlar bor. Endi tog‘dagi chashmaning suvini ichishadi. Mablag‘ yetarli. Har bir kun g‘animat. Odamlar suvni kutishyapti... Quvurlar yotqizilmoqda. Ishning qizg‘inligi... eh-he ishchimi, xizmatchimi, muhandismi, loyihachimi, rahbarlarmi... Surxondaryo g‘ayrat-shijoatda. Barchasi bugun uchun, kelajak uchun, xalq uchun!

Denovda bo‘lsangiz “Kim zo‘r tadbirkor”, deb so‘rang. Zo‘rdan zo‘r ko‘p. Lekin Islom Xudoyberdiyevni mashhur deydilar.

Islom aka — tuman deputati. Ko‘rinishi haybatli. Bir tomondan qarasangiz, Alpomishga o‘xshaydi. Tog‘ kelbatli, yo‘lbars savlatli, o‘zi davlatli yigit. Suhbati qiziq. Hayron qolasiz.

— Boysun — Denov yo‘li... yo‘l emasdi. O‘n qadamda yuzta “yama”, to‘g‘risi. Xalq necha o‘n yildan beri qiynaladi. Hozir ko‘ring, yo‘l yangidan qilinyapti. XXI asr yo‘li bo‘lyapti. Nasib etsa, mashinalar qushday uchadi. Boysun bulog‘idan piyola to‘la suv Denovgacha bir tomchi to‘kilmaydi. Surxondaryoning xohlagan joyiga boring, uylar, binolar, imoratlar, zavodlar, fabrikalar, qishloq yo‘llari, maktablar, universitetlar qurilyapti. Bir obodlik ustiga ming obodlik. Surxondaryo bugun qaddi-qomatini tiklayotgan pahlavonga o‘xshaydi.

— Islom aka, siz, katta tadbirkorsiz. Keyingi yillarda sohada erkinlik kengaydi, soliq imtiyozlari berildi... — negadir savolimga uyaldim, baribir fikrimni oxiriga yetkazdim, — sizning natijalaringiz qanday?

— O‘zgarishlar haqida so‘zlasam, gap ko‘p. Dehqonchilik, bog‘dorchilik, qurilish butunlay yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi. Klasterlar paydo bo‘ldi. Prezidentimiz soha vakillari bilan ochiq muloqotda ta’kidlaganidek, yetti yillik sa’y-harakatlar natijasida Yangi O‘zbekistonda yangi tadbirkorlar sinfi shakllandi. Men Denovning qoq o‘rtasida “Chag‘oniyon” kitob markazi ochdim. O‘n yil oldin kitob desa, ba’zilar burnini jiyirardi. “Kitob dedingizmia?!” deb hayron qarardi. Bugun siz ham, men ham tushundik: kitobsiz hayot yo‘q. Kelajak yo‘q. Shu bois uch qavatli kitob markazi ochilishi bayram bo‘lib ketdi. Ziyolilar, yoshlar, oddiy xalq vakillari — hammaning qo‘lida kitob. Mushoira bir qizidi-yey... Og‘zingiz ochilib qoladi.

Kitob o‘qiyotgan, kitob bilan yashayotgan kishilarni ko‘rsam, zavqlanib ketaman-da.

G‘afur G‘ulomning she’ri borku:

*Shuhrat qoldirmoq chun Gerostratdek,*
*Diana ma’badin yoqmoq shart emas.*
*Ko‘plarning baxtiga o‘zlikni jamlab,*
*Shu ulug‘ binoga bir g‘isht qo‘ysak, bas.*

G‘afur bobo, qarang, qanday yozgan. Mo‘jizaa?! Hozir, ha-ha, hozir tandirdan chiqqanday. Quyilib kelganday...

Islom akani eshityapman. Hayratlanib qarayman. Tadbirkor desam, shoirku, bu odam. Biznesning ichida, ishbilarmonlikning yo‘lida yurganlar ham kitob o‘qir ekan-ey. She’rni yoddan aytar ekana?! Meni kechiring-u, rostini aytsam, bunaqa katta tadbirkorning, zamonaviy mashinalarda yurgan haybatli kishilarning she’r o‘qishini hech aqlimga sig‘dirolmasdim. Hayot — hayotda. Biz o‘ylagan narsa doim ham to‘g‘ri emas ekan. Islom aka so‘zlayapti...

— Men kitobni yaxshi ko‘raman. O‘zbekiston qahramonlari, xalq shoirlari Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, yana ko‘plab shoirlarning 100 ga yaqin she’rlarini yoddan o‘qiyman. Bexijolat bir gapni aytaman: bugun kitob, she’rlar yana hayotga qaytdi. Yo‘q bo‘lib ketadigan joyga borib qolgandi. Lekin kitob, ilm, adabiyot bo‘lmasa, hayot bo‘lmaydi. So‘z san’ati qalbni tarbiyalaydi, tafakkurni charxlaydi, insonni ma’nan uyg‘otadi. Taassufki, ba’zilar bugun ham g‘aflatda. Hamma sergak tortsa, ko‘zlangan barcha marraga tez yetishimiz aniq. Bugungi davr har birimizdan hayotga ochiq ko‘z bilan qarashni talab etadi. Yangi O‘zbekistonda esa imkoniyatlar serob. Bunday davr hech qachon bo‘lmagan. O‘qiyman desangiz, ana zamonaviy oliygohlar. Yo‘l ochiq. Avvallari Surxondaryoda 1 ta, o‘ylab gapiryapman, bor-yo‘g‘i bitta TerDU bor edi, bitta shu. Unga kirish pul edi, korrupsiya edi. Hozir Surxondaryoda 6 ta oliy o‘quv yurti... yana bitta xususiy universitet. Yana nima kerak bizga?! O‘qimoqchimisiz, bemalol. Biznes qilasiz, yo‘l ochiq. Chetga borib o‘qiysizmi? Ixtiyoringiz. Hamma tomonda imkoniyat. Yashaydigan, yashnaydigan zamon keldi. Mashinamda doim kitob... Deputatman, maktablarga boraman. Kitob sovg‘a qilaman. Bolalar o‘qiyapti. Kitobga qiziqish kuchaydi. Oliftachilik qilyapti demang, kitob o‘qimagan, she’r aytmagan kunimni umrimga qo‘shmayman...

Islom Xudoyberdiyev yaratgan bog‘lar, ko‘rsatilgan himmatlar, tadbirkorlik muammolari — ular keyingi suhbatlarga qoldi.

Surxondaryo — yangi O‘zbekiston degan bog‘u bo‘stonning bitta gulshani. Hech mubolag‘a deb o‘ylamang, Termizni har kun ko‘rsam ham, gohida adashganday qarab qolaman. Shu o‘zimizning Termizmi, deb hayratlanaman. Hashamatli saroylardan osmono‘par inshootlargacha, yo‘llar yoqasidagi 70 daraja issiqni yengib gullayotgan gulu chamanlardan bog‘u bo‘stonlargacha. Odamlar tafakkuridagi shukronaligu munavvarlikni ko‘rsangiz. Termiz otadan Imom Termiziygacha... fikringizni cho‘g‘lantiradi, ko‘nglingizni ruhlantiradi, tafakkuringizni tog‘lantiradi. Surxondaryoni ko‘rmabsiz, bu dunyoga kelmabsiz, degan bobolar so‘zini eshitgansiza?! Ayniqsa, mustaqilligimiz bayramlarida... Alpomishday azal doston bu! Barchinoyday go‘zal bo‘ston bu! Yangi O‘zbekiston joniga jo bu! Surxondaryo bu!

Yuqorida “Baxt nadir?” degan savolni ham bergandik. O‘ylaymanki, maqolamiz mohiyatida shu savolga ham javob topdik. Vaqtdan, har bir kunning bir imkoniyat ekanidan foydalanib yashagan inson barcha orzu-umidlariga yetarkan, el-yurti ravnaqiga hissa qo‘sharkan, e’zozu ardoqda bo‘lib, umridan baraka toparkan — shuning o‘zi katta baxt!

**Mengnor OLLOMURODOV,**
**Yozuvchilar uyushmasining Surxondaryo viloyati bo‘limi rahbari, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi.**

Oliy Majlis Senatida

# VATANGA MUHABBAT VA SADOQAT E'TIROFI

*Bugun islohotlar nafasi yetmagan shahar, qishloq va mahalla qolmadi. Har bir hududning o'ziga xosligi inobatga olinib, yirik sanoat korxonalari, yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilmoqda. Natijada iqtisodiyotimiz yanada mustahkamlanib, xalqimiz farovonligi ta'minlanmoqda.*

Shubhasiz, bularning barchasi xalqimizga erkinlik va ro'shnolik olib kelgan mustaqillik sharofatidandir. Ammo bugungi yutuqlarimiz o'z-o'zidan bo'lib qolgani yo'q. Buning zamirida davlatimiz rahbari boshchiligida olib borilayotgan izchil islohotlar hamda mehnatkash xalqimizning fidoyiligi mujassam.

Mamlakatimizda ana shunday fidoyi yurtdoshlarimizni taqdirlash ezgu an'anaga aylangan. Joriy yilda ham O'zbekistonimiz mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan Vatanimiz istiqloli hamda taraqqiyoti yo'lida fidoyilik ko'rsatayotgan va sadoqat bilan mehnat qilayotgan hamyurtlarimiz davlatimizning yuksak unvon, orden va medallariga munosib ko'rildi.

Prezidentimizning Farmoniga ko'ra, mustaqilligimizning 32 yilligi munosabati bilan mamlakatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlash, barcha sohada islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, xalqimiz farovonligini ta'minlash borasidagi ko'p yillik samarali mehnati, yangi O'zbekistonni barpao etish, uning xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirish, inson qadrini ulug'lash kabi ezgu maqsadlar yo'lidagi katta xizmatlari, jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni asrab-avaylash, yosh avlodni ona Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashdagi ibratli ishlari, shuningdek, yorqin iste'dodi, keng qamrovli ijodiy, ilmiy-amaliy faoliyati, ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun bir qator hamyurtlarimiz davlat mukofotlari bilan taqdirlandi.

Oliy Majlis Senatida o'tkazilgan marosimda davlat mukofotlari o'z egalariga topshirildi.

Mukofotlarni Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva topshirdi.

Tadbir davomida mukofotlanganlar so'zga chiqib, o'zlarining kamtarona mehnatlari davlatimiz, Prezidentimiz tomonidan yuksak darajada e'tirof etilganini ta'kidlab minnatdorlik izhor qilishdi.

**"Xalq so'zi".**

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

# FIDOKORONA MEHNATGA MUNOSIB BAHO

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasida davlat mukofotlarini tantanali topshirishga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.*

*Unda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov yig'ilganlarni Mustaqillik bayrami va mukofotlar bilan tabriklab, ezgu tilaklar bildirdi.*

Ta'kidlanganidek, xalqimiz shu kunlarda Vatanimiz hayotida butunlay yangi davrni boshlab bergan unutilmas tarixiy voqea — O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 32 yillik bayramini "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" degan bosh g'oya asosida keng nishonlamoqda.

Ushbu g'oya zamirida chuqur ma'no bor. Zero, keyingi yetti yilda O'zbekiston demokratik yangilanishlar, jadal iqtisodiy rivojlanish, keng ko'lamli islohotlar mamlakatiga aylandi. Bugun har bir fuqaro erkin va farovon yashaydigan yangi jamiyat va davlat barpo etilmoqda. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitusiyaning qabul qilinishi xalqimiz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashini yana bir bor yaqqol tasdiqladi.

Iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirish, tadbirkorlikka keng yo'l ochish, yangi ish o'rinlari yaratish, kambag'allikni qisqartirish hamda aholining turmush farovonligini oshirish, tibbiy xizmatlar va ta'lim sifatini jahon standartlariga moslashtirish borasida tizimli ishlar olib borilayotganligi qayd etildi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga asosan Qonunchilik palatasi Spikeri tomonidan bir guruh davlat xizmatchilari, ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar xodimlariga davlat mukofotlari tantanali ravishda topshirildi.

**"Xalq so'zi".**

Senat qo'mitasida

# QABUL JARAYONIDA FUQAROLAR MUAMMOLARI HAL ETILDI

*Ayonki, bugungi kunda jamiyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ro'y berayotgan yangilanishlar mohiyatiga mos ravishda xalq bilan muloqot qilish, fuqarolarni o'ylantirayotgan masalalar va muammolarga yechim topish barcha darajadagi davlat idoralarining birlamchi vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Keyingi yillarda bu borada muayyan natijalar qo'lga kiritildi.*

Shu o'rinda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish orqali inson huquq va erkinliklari, uning qonuniy manfaatlarini ishonchli tarzda himoya qilish masalasiga ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qarab kelinayotganini ham alohida ta'kidlash zarur.

Joriy yilning avgust oyi davomida Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan fuqarolar qabullari misolida ham buni ko'rish mumkin. Muhimi, bu jarayonda yurtimizning turli hududlaridan kelgan 100 ga yaqin fuqarolarning muammolari tinglandi.

Qabullar jarayoniga Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Oliy sud vakillari va tegishli mutaxassislarning jalb etilgani uning yanada samarali kechishiga xizmat qildi.

E'tiborlisi, qabulga kelgan har bir fuqaroning murojaati to'liq va xolisona o'rganilib, aksariyat murojaatlar joyida hal etilgan bo'lsa, ko'rib chiqish uchun qabul qilingan murojaatlar alohida nazoratga olindi.

Jumladan, fuqaro V. Nikulin va Yu. Meshalkinning Bosh prokuratura hamda IIV rahbariyatiga qabul qilishni so'rab, fuqaro S. Qurbonovaning zo'ravonlik va tazyiqqa qarshi himoya orderi masalasidagi murojaatlari ayni jarayonda ijobiy hal etildi.

Tahlillar qabul jarayonlarida kelib tushgan murojaatlarning asosiy qismini moddiy ta'minot, uy-joy bilan ta'minlash, bandlik, tergov hamda odil sudlovni amalga oshirishga oid masalalar tashkil etishini ko'rsatdi.

Qo'mita tomonidan har bir murojaatni to'liq o'rganib chiqish hamda natijasi bo'yicha vaqtida qonuniy qaror qabul qilish yuzasidan mutasaddi vazirlik va idoralar hamda hududlardagi mas'ul rahbarlarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

**"Xalq so'zi".**

# MULK HUQUQINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH ZARUR

*Ma'lumki, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida xususiy mulkning daxlsizligi yanada mustahkamlanib, mulkdor mol-mulkidan sudning qarori bo'lmasdan turib mahrum etilishi mumkin emasligi hamda Bosh qomusimizda ilk marotaba yer xususiy mulk bo'lishi mumkinligi belgilab qo'yildi.*

## Seminar

Kecha Oliy Majlis Senatida bo'lib o'tgan "O'zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishini ta'minlash" mavzuidagi seminarda shu masala batafsil tahlildan o'tkazildi.

Ta'kidlanganidek, Konstitusiyamizda yerga nisbatan xususiy mulk joriy etilishi tadbirkorlarning kreditga layoqatlilik darajasini hamda mol-mulkni oqilona boshqarish orqali daromadni ko'paytirish imkonini berishi, yerning xususiy mulk sifatida belgilanishi mulkdorlar qatlamining kengayishiga, bu boradagi bozorning rivojlanishiga, yer uchastkalaridan foydalanish bo'yicha iqtisodiy samaradorlik oshishiga olib keladi.

Ishtirokchilar tomonidan Konstitusiyada hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi belgilangani bugungi kunda jamiyatimizdagi o'tkir muammolardan biriga aylangan uy-joyni buzish bilan bog'liq muammoga nisbatan xalqparvar yechim bo'lganligi alohida aytib o'tildi.

Seminarda mulk huquqi va uning turlari, mulk huquqi vujudga kelishi, bekor qilinishi va haqiqiy emas deb topish asoslarini amaliyotda qo'llashda ayrim muammolar yuzaga kelayotgani hamda mulk huquqini himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligiga ham e'tibor qaratildi.

Shuningdek, mulkni xususiylashtirish, ijara huquqi asosida ma'lum muddatga yer ajratish va mazkur yer uchastkasida qurilgan bino-inshootlarga bo'lgan huquqni amalga oshirishdagi ayrim muammolarga to'xtalib o'tildi.

Yakunda barcha mulk shaklining teng huquqliligi va uning himoya qilinishini ta'minlashga doir muhim taklif hamda mulohazalar bildirildi.

**"Xalq so'zi".**

# QUTLAYMIZ!



Prezidentimiz Farmoniga ko'ra, hamkasbimiz — "Xalq so'zi" va "Narodnoye slovo" gazetalari Bosh muharririning o'rinbosari Xashimov Akram Abdiyevich "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

Tahririyat jamoasi jonkuyar va fidoyi hamkasbimizni ushbu yuksak mukofot bilan tabriklaydi. Uning kelgusidagi ishlariga muvaffaqiyatlar yor bo'lishini tilaydi.

Tibbiyot



# TASHXISLASH VA DAVOLASH USULLARI KENGAYMOQDA

*Keyingi yillarda yurtimizda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishga oid davlat dasturlari amalga oshirilishi tufayli mamlakatimizda yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishning prinsipial jihatdan yangi tizimi tashkil etildi.*

Bilamizki, yaqin 5-6 yil ilgari ixtisoslashtirilgan yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish, asosan, Toshkent shahrida shakllantirilgani respublika mintaqalari aholisining tegishli xizmatlardan foydalanishini cheklab qo'yayotgandi.

Bugungi kunda esa bunday markazlar soni 10 tadan 24 taga, ularning hududiy filiallari 2 tadan 270 taga oshirildi. Natijada markazlar tomonidan amaliyotga tatbiq qilingan yangi tashxislash va davolash usullari soni 260 tadan 2084 taga oshdi. Shuningdek, joylarda xirurgiya yo'nalishida qo'shimcha 27 turdagi, endokrinologiyada — 7, kardiologiyada 14 turdagi yuqori texnologik amaliyotlar joriy etilgan.

Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazida bugungi kun talablariga javob beradigan, xorijiy klinikalar bilan raqobatlasha oladigan zamonaviy 75 o'rinli operasion blok qurilib, foydalanishga topshirilgani, ayniqsa, e'tiborga molikdir. Hozir bu yerda nafaqat yurtimiz aholisi, balki xorijiy fuqarolar ham yuqori texnologik muolajalar olmoqda.

Sohani xalqimizga yanada yaqinlashtirish maqsadida hududlarda oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalar tarmog'ini yanada kengaytirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada olis va chekka mahallalarga maxsus konteynerlar o'rnatilib, mahalla tibbiyot punktlari ochilyapti. 2023 yildan boshlab, joylardagi poliklinika filiallari negizida oilaviy shifokor punktlari tashkil etilmoqda.

Masalan, yil boshidan buyon 46 ta oilaviy shifokor punkti va 35 ta mahalla tibbiyot punkti yo'lga qo'yilib, 250 ming nafar aholiga birlamchi tibbiyot yaqinlashtirildi. 9 370 ta mahalladan 6 359 tasiga (67 foiz) eng yaqin tibbiyot muassasalari 3 kilometrgacha bo'lgan masofada xizmat ko'rsatmoqda.

Darvoqe, 2023-2024 yillar davomida qo'shimcha 1373 ta tibbiyot muassasasini tashkil etish rejalashtirilgan. Natijada 90 foiz mahallalarda eng yaqin tibbiyot muassasasigacha bo'lgan masofa 3 kilometrgacha va 10 foiz mahallalarda 5 kilometrgacha bo'ladi.

Hayotga joriy etilayotgan islohotlar onalar va bolalar o'rtasida o'lim darajasini keskin pasaytirish, tibbiyot muassasa va tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini takomillashtirish, asosiysi, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar darajasi va sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Zero, tibbiyotdagi islohotlar Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!

**Qizilgul QOSIMOVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

# YORQIN KELAJAK BUNYODKORLARI

*Oxirgi yetti yilda onalik va bolalikni muhofaza qilish, ularning salomatlik ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan ulkan ishlar bajarildi.*

Xususan, inson manfaatlari yo'lidagi sa'y-harakatlar natijasida sog'liqni saqlash tizimi tubdan takomillashib bormoqda. Ayni vaqtda 17 mln. nafardan ortiq ayollarga 22,3 ming o'ringa ega 227 ta tug'uruq kompleksi, 11 mln. nafar 18 yoshgacha bo'lganlar uchun 13,3 ming o'ringa ega 245 ta pediatriya muassasasi xizmat ko'rsatmoqda.

Tibbiy-sanitariya muassasalarida "Ayollar maslahatxonalari", tuman va shaharlardagi ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarda "Onko-nazorat xonasi" hamda "Qizlar salomatlik markazlari" faoliyat yurityapti.

Homiladorlikning birinchi uch oyligida ayollarni ommaviy tarzda ultratovush tekshiruvi nafaqat viloyat miqyosida, balki tuman va shahar miqyosida yangi tashkil etilgan prenatal skrining xonalari orqali amalga oshirilyapti. Yurtimizning barcha hududidagi ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalar, prenatal skrining xonalari zamonaviy ultratovush tahlil apparati bilan jihozlangani ham bu boradagi imkoniyatlarni yanada kengaytirmoqda.

Islohotlar samarasida oxirgi besh yilda go'daklar va onalar o'limi ko'rsatkichi kamaydi. Shuningdek, eshitishi zaif va tug'ma karlikni davolash maqsadida joriy yilning 6 oyida 5 yoshgacha bo'lgan 164 nafar bolada koxlear implantatsiya amaliyotlari o'tkazildi. Hududlarda 46 ta tuman va shahar tibbiyot birlashmalarining tug'uruq bo'limlari negizida tumanlararo perinatal markazlar amaldagi shtatlar doirasida tashkil etildi.

2022-yil 1 iyuldan esa oilaviy shifokor punktlari va tuman hamda shahar ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalari "tibbiyot brigadalari" tarkibida 8,5 ming nafar patronaj hamshira-doya faoliyati yo'lga qo'yildi. Joriy yil so'nggiga qadar esa homilador ayollar va bolalarga hududidan qat'i nazar, kafolatlangan bepul tibbiy xizmatdan foydalanish imkoni yaratiladi.

Shuningdek, yil yakuniga qadar bolalar, o'smirlar va homilador ayollarni 7 turdagi vitamin va minerallar bilan bepul ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish yo'nalishida takrorlanuvchi xizmat turlarini optimallashtirish ishlari olib boriladi. Bu, o'z navbatida, O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasida aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Umuman, keyingi yetti yilda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat onalik va bolalikni tizimli ravishda muhofaza qilish imkonini yaratdi. Natijada onalar va go'daklar o'limining kamayishiga erishildi. Zero, homilador ayollar va yosh bolalarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikni yanada kuchaytirish millat sog'lig'ini ta'minlashga katta hissa qo'shadi.

**Mavluda IBRAGIMOVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

# OFTALMOLOGIYA YO'NALISHIDA BOSHLANGAN ISHLARNING MUHIM BOSQICHI

*Dunyoni ko'z nuri bilan anglash, idrok etish insonga berilgan bebaho ne'mat. Ammo hayotda tug'ma nuqsoni sababli yoki biror kasallik asorati yoxud ehtiyotsizlik oqibatida ko'rish imkoniyatini yo'qotgan insonlar ham bor.*

So'nggi yillarda O'zbekiston tibbiyoti sohasida erishilgan eng katta yutuqlardan biri — aynan aholiga ko'rsatilayotgan oftalmologiya yo'nalishini rivojlantirish bilan bog'liq ekani e'tiborga molik.

Davlatimiz rahbarining 2017 yildagi tegishli qarori ijrosi doirasida va aholiga ko'rsatilayotgan oftalmologiya xizmati sifatini oshirish maqsadida 2018 — 2022-yillarda Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markaziga 4,5 mln. AQSH dollari qiymatidagi 145 ta yuqori texnologik tibbiy uskunalar olib kelinib, xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Natijada 49 xil oftalmologik kasalliklarni davolash bo'yicha 172 turdagi tibbiy xizmatlar ko'rsatishga, ko'z mikroxirurgiyasi markazida dunyo andozalariga mos ravishda jarrohlik faolligi 99,4 foizga yetishiga erishildi. O'tkazilayotgan yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari soni ilgari yiliga 10 mingga ham yetmagan bo'lsa, 2022-yilda 16 mingdan ortiq operatsiyalar bajarildi.

Albatta, bugun tibbiyot rivoji nafaqat zamonaviy, yuqori aniqlikka ega bo'lgan asbob-uskunalar, shu bilan birga, kadrlar salohiyatiga ham bevosita bog'liq. Shu bois 2018 — 2022-yillarda 50 nafar soha mutaxassisi Fransiya, Turkiya, Avstriya, Latviya, Janubiy Koreya, Rossiya kabi davlatlarda malaka oshirib keldi. Rossiya, Turkiya, Isroil, Hindiston, Xitoy davlatlaridan jami 20 ga yaqin mutaxassislarning markazga tashrifi davomida mingdan ortiq murakkab jarrohlik amaliyotlari o'tkazildi.

Ushbu o'zgarishlar faqat markazning o'zi bilan cheklanib qolmay, uning hududlardagi deyarli barcha filialida katarakta jarrohligining "oltin standarti" — katarakta fakoemulsifikatsiya, ko'z olmasining oldi va orqa qismidagi barcha turdagi lazer jarrohliklari, optik kogerent tomografiya, ultratovushli biomikroskopiya diagnostika usullari keng joriy qilindi.

Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand va Buxoro filiallarida keratoplastika va vitreoretinal jarrohlik usullari ilk bora amaliyotga yo'naltirildi. Bundan bir necha kun oldin, ya'ni 25-avgust kuni Navoiy viloyatidagi filialda ko'z olmasining oldi va orqa qismidagi lazer jarrohlik usullari va asoratli katarakta — sun'iy ko'z gavharini ko'z sklerasiga tikish amaliyoti ilk bora muvaffaqiyatli bajarildi.

Oftalmologiya xizmatini aholiga yanada yaqinlashtirish maqsadida esa mamlakatimizda ishlab chiqariladigan "ISUZU" rusumidagi avtobuslar negizida 13 dona mobil poliklinika tashkil etildi hamda zamonaviy uskunalar bilan jihozlandi. Ushbu mobil poliklinikalar hududiy tibbiyot boshqarmalari bilan kelishgan holda reja asosida ehtiyojga qarab haftada 1 — 3 marta shahar va tumanlarga, ishlab chiqarish korxonalariga chiqib, aholini tibbiy ko'rikdan o'tkazib kelmoqda.

Bu kabi misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Umuman, aholiga ko'rsatilayotgan oftalmologiya xizmati sifatini yaxshilash borasidagi ishlar misolida mamlakatimiz tibbiyot sohasida erishilayotgan natijalarni bugun minglab bemorlar o'z hayotlarida his qilayotir.

**Maxfirat XUSHVAQTOVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

# KO'RSATILAYOTGAN NEYROXIRURGIYA XIZMATIDAN AHOLI ROZIMI?

*Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, avvalo, inson manfaatini ta'minlash, fuqarolar salomatligini mustahkamlash, ularning hayotdan rozi bo'lib yashashiga xizmat qilayotir. Birgina tibbiyotdagi islohotlar natijasida so'nggi yetti yilda neyroxirurgiya yo'nalishi ham katta o'zgarishlarga yuz tutdi. Xususan, ilgari faqat respublika markazida bajariladigan jarrohlik hamda davolash amaliyotlarining qariyb 40 foizi yurtimizning 14 ta hududida joriy etildi.*

Quvonarlisi, bugun markazlar eng zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan bo'lib, turli neyroxirurgik kasalliklarga chalingan bemorlarga yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatmoqda. Neyroxirurgiya xizmatining ko'lami va hajmi, tibbiy xizmat sifati viloyatlarda ortib borayotgani, mahalliy mutaxassislarning yosh bolalarda bosh miya nuqsonlarini yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlarini mustaqil ravishda bajarishi bunga yaqqol misoldir.

Davlat tomonidan neyroxirurgiya yo'nalishi bo'yicha yosh mutaxassislarni xorijda malaka oshirishi faol qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu esa yosh shifokorlarga zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib, keyinchalik olgan tajribalarini O'zbekiston tibbiyotiga tatbiq qilishga imkon beradi.

Sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida oxirgi olti yilda o'tkazilayotgan yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari soni 2018 yilga kelib 9 955 ta, 2022-yilda esa 12 277 taga yetdi.

Aytish mumkinki, Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni mamlakatimiz tibbiyoti taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Mazkur hujjat bilan neyroxirurgiya bo'limlari zamonaviy texnik uskunalar bilan ta'minlandi. O'tgan yilda hududlarda tashkil etilgan tibbiy ko'riklarda 975 nafar bemor aniqlanib, ularning 114 nafarida jarrohlik amaliyoti o'tkazildi.

To'qqizta yangi jarrohlik amaliyoti o'zlashtirilgani, shu jumladan, epilepsiya, bosh miya falaji, insultning oldini olish va o'tkir davrida davolash, bolalarda retinoblastoma onkologik kasalligida qon tomir orqali kimyoterapiya o'tkazish va boshqa turdagi jarrohlik amaliyotlari yo'lga qo'yilgani sohadagi islohotlar natijasidir.

Bundan tashqari, 100 dan ortiq neyroxirurg-shifokorlar xorijning turli mamlakatlaridan O'zbekistonda mahorat darslari o'tkazish va konferensiyalarda qatnashish uchun keldi. 108 nafar mutaxassis o'z ish joylarida, 20 nafari markazda, 15 nafari xorijda yuqori texnologik amaliyotlar uchun qayta tayyorlandi.

Teletibbiyot orqali hududlarda har yili 30 ga yaqin masofaviy tibbiy maslahatlar amalga oshirilib, bemorlarga yashash joyida davolanish imkoniyati yaratilib kelinmoqda. Viloyatlarda bolalar neyroxirurgiyasi uchun 58 ta o'rin ajratildi. Tibbiy buyumlar va dori vositalari bilan ta'minlash esa 99 foizni tashkil qildi.

Ushbu o'zgarishlar respublikaning barcha hududini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, neyroxirurg vrachlarning o'z maktabini shakllantirish va rivojlantirish hamda neyroxirurgik kasalliklar profilaktikasi, diagnostikasi va ularni davolash sohasida mamlakatda ilmiy tadqiqotlar doirasini kengaytirish imkonini berdi.

Umuman olganda, neyroxirurgiya sohasini rivojlantirishga qaratilgan ushbu chora-tadbirlarning barchasi mamlakatimizda mazkur yo'nalishda ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatining sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keldi. Asosiysi, bemorlar xorijga chiqmasdan O'zbekistonning o'zida tajribali mutaxassislardan malakali yordam olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

**Mavludaxon ADHAMJONOVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

Biz va jahon

# NYU-YORKDA BAYRAM SAYILLARI VA FUTBOL TURNIRI O'TKAZILDI

*Nyu-Yorkda shahar meri va boshqa rasmiylar ishtirokida O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlangan bayram tantanalari tashkil etildi.*

Xususan, 26-27 avgust kunlari "Kayzer" bog'ida "Mahalla USA" o'zbek jamoat birlashmasi tashabbusi bilan mamlakatimizning Nyu-Yorkdagi Bosh konsulxonasi va "Vatandoshlar" jamoat fondi hamkorligida futbol bo'yicha an'anaviy "Mustaqillik kubogi — 2023" musobaqasi va katta bayram sayli uyushtirildi.

Futbol bo'yicha turnirda AQSHning 10 ta shtatidan kelgan vatandoshlardan tuzilgan 15 ta jamoa o'zaro bahslashdi.

Musobaqalarning saralash bosqichi 26 avgust kuni boshlanib, g'oliblikka da'vogar bo'lgan jamoalar o'rtasidagi hal qiluvchi final bahsi 27 avgust kuni bo'lib o'tdi.

"Pakhtakor", "Lokomotiv", "Marokand", "VIP", "UZB FC", "O'zbegim", "SF Falcons", "UZ Galaxy FC", "Semurg'", "Istiqlol", "KC Lochin", "Nashville", "Uzbek Chicago", "Turon", "FC Sogdiana" kabi jamoalar mazkur musobaqaga puxta tayyorgarlik bilan kelishganini yashil maydonda namoyish etdi. Havaskor jamoalar tomonidan ko'rsatilgan yuksak mahorat va qiziqarli o'yinlar futbol ishqibozlariga xursandchilik bag'ishladi.

Turnirda O'zbekiston futbol federatsiyasi vise-prezidenti Odil Ahmedov faxriy mehmon sifatida ishtirok etdi. Taniqli sobiq futbolchi, shuningdek, bolalar uchun mahorat darsi o'tkazdi.

Musobaqa yakuniga ko'ra, birinchi o'rinni Nyu-Yorkning "Pakhtakor" jamoasi qo'lga kiritdi. Ikkinchi o'rin Kanzas shtatining "KC Lochin" va uchinchi o'rin Ogayo shtatining "Istiqlol" jamoalariga nasib etdi.

Turnir g'olibi "Pakhtakor" jamoasiga bosh sovrin — "Mustaqillik kubogi" tantanali ravishda topshirildi. Sovrindorlar qatoridan o'rin olgan jamoalar ham musobaqa tashkilotchilari va "Vatandoshlar" jamoat fondining esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

27 avgust kuni esa mamlakatimiz mustaqillik kuniga bag'ishlangan xalq sayillari o'tkazildi. Mazkur tadbirda AQSHning turli shtatlaridan tashrif buyurgan yurtdoshlarimiz, Nyu-York shahrining siyosiy doira vakillari, jumladan, shahar meri Erik Adams, Nyu-York shtati Senati loyiha direktori Zuyera Axmed, Nyu-York shahri Kengashi deputatlari Villiyam Kolton, Ari Kagan, Maxail Novaxov, Alek Bruk-Krasniy, shuningdek, keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Xorijiy mehmonlar o'zbek xalqining boy madaniyati, tarixi, urf-odat va an'analari, yurtimizda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan jadal va keng qamrovli islohotlar to'g'risida ma'lumotlar bilan tanishdilar.

Bayram sayli doirasida shaxmat, shashka, arqon tortish, kuch sinashish, tosh ko'tarish va boshqa o'zbek milliy o'yinlari o'tkazildi. Xalq hunarmandchiligi buyumlari ko'rgazmasi ham uyushtirildi. O'zbekistondan tashrif buyurgan elimiz suygan san'atkorlar va yosh vatandoshlar tomonidan milliy qo'shiq va raqslardan iborat madaniy dastur namoyish qilindi. O'zbek san'atkorlari tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar shu kuni tadbirda qatnashgan amerikaliklar va vatandoshlarga xushkayfiyat bag'ishladi.

Mamlakatimiz istiqlolining o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlangan sayilda, shuningdek, 3 ta doshqozonda milliy taom — palov tayyorlandi va mehmonlarga ulashildi.

**"Dunyo" AA.**
**Nyu-York**

# MOSKVADA "LAZGI – QALB VA MUHABBAT RAQSI" BALETI NAMOYISH ETILADI

*10 sentyabr kuni Moskvadagi mashhur Katta teatrning tarixiy sahnasida O'zbekiston Madaniyati va san'atini rivojlantirish jamg'armasi ko'magida shahar aholisi hamda mehmonlari uchun "Lazgi — qalb va muhabbat raqsi" baleti namoyish etiladi.*

Taniqli nemis xoreografi va baletmeysteri Raul Raymondo Rebek sahnalashtirgan ushbu spektakl YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan qadimiy xalq raqsi — Lazgiga bag'ishlangan.

Xalq donishmandligi timsoli bo'lgan, eng dilbar tuyg'ular bilan bog'liq Xorazm lazgisi uch ming yildan ortiq tarixga ega. Maftunkor energiya, qizg'in harakat, murakkab raqs naqshiga asoslangan o'ziga xos uslub — bularning barchasi Lazgini ajoyib madaniy hodisaga aylantiradi. O'zbekiston milliy baletining spektakli birinchi marta 2021 yilda tomoshabinlar e'tiboriga havola etilgan va shu zahotiyoq katta shov-shuvga aylanib, san'at ixlosmandlarining yuqori baholariga sazovor bo'ldi.

Raymondo Rebekning an'anaviy qadimiy raqsni mumtoz balet elementlari bilan uyg'unlashtirgan mazkur spektakli tomoshabinlarga Sharqning o'ziga xos jozibasi va Buyuk Ipak yo'lining ulug'vor sehrini taqdim etadi.

2021 yil 27 noyabr kuni "Ekspo-Dubay — 2020" doirasida Dubay operasi sahnasida "Lazgi — qalb va muhabbat raqsi" baleti spektaklining premyerasi bo'lib o'tgandi.

Oradan bir yil o'tib, 21 iyun kuni Istanbulning Otaturk nomidagi madaniyat markazida ushbu balet spektakli Turkiya jamoatchiligi e'tiboriga taqdim etilgan.

Eslatib o'tamiz, 2019 yil 12 dekabrda YUNESKO huzuridagi Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mita "Xorazm raqsi — Lazgi"ni Insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro'yxatiga kiritgan edi.

**"Dunyo" AA.**
**Moskva**

# FUQAROLARNING O'Z HAYOTIDAN QONIQISH DARAJASI YUQORI



*Ko'p millatli O'zbekiston xalqi davlat mustaqilligining 32 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rayotgan bir paytda "Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan jamoatchilik fikri so'rovi o'tkazildi.*

## Tadqiqot

Tadqiqot mutlaq ko'pchilik hamyurtlarimizning nazarida mustaqillik iqtisodiyotni rivojlantirish, siyosiy barqarorlik, mamlakat, jamiyat, har bir oila xavfsizligi va farovonligining asosi hisoblanishi, fuqarolarga o'zini farovon davlatning bir qismi sifatida his qilishga ishonch bag'ishlashi, faol fuqarolik pozisiyasini va jonajon mamlakat ravnaqiga munosib hissa qo'shish istagini rag'batlantirishini ko'rsatdi.

So'rov ishtirokchilarining ta'kidlashicha, mustaqillikka erishish ularga keng imkoniyatlar, jumladan, o'z hayoti va kelajagini erkin belgilash, rahbarlarni tanlash hamda muhim hayotiy manfaatlariga oid qarorlarni qabul qilishda ishtirok etish imkonini beradi.

O'zbekistonliklar mustaqillikni yuksak qadrlashadi, shu sababli fuqarolarning aksariyati, ya'ni 73,5 foizi ushbu muhim sanani a'lo va ko'tarinki kayfiyat bilan, o'z mamlakati, xalqi uchun, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy, texnik, madaniy va boshqa ko'plab sohalardagi tarixiy rivojlanish yo'llarida erishilgan natijalar uchun g'urur va iftixor tuyg'usi bilan nishonlamoqda.

Aksariyat fuqarolar o'z mamlakati va xalqi bilan, O'zbekiston jahon hamjamiyatining ko'z o'ngida yuksak obro'-e'tiborga va ijobiy imijga ega erkin davlat hisoblangani uchun faxrlanadi.

Respondentlarning mutlaq ko'pchiligi mustaqil O'zbekiston fuqarosi ekanidan, o'zlarining shu yurtga, yagona millatga mansubligidan faxrlanishadi, mamlakatda ro'y berayotgan o'zgarishlarga daxldorligini eng oliy qadriyat sifatida qabul qiladi.

So'rov ishtirokchilarining 76,4 foizi bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar tufayli mamlakatimizda fuqarolarning tinch va osoyishta hayoti ta'minlanayotgani hamda jamiyatda bag'rikenglik, do'stlik va insonparvarlik hukm surayotganini e'tirof etgan.

Olingan so'rov natijalari mamlakatimizda inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirish, qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish, sud-huquq sohasini demokratlashtirish, aholining adolat va sudga bo'lgan ishonchini oshirish borasida salmoqli yutuqlarga erishilganini ko'rsatmoqda.

Respondentlarning fikriga ko'ra, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, yosh avlodni inson huquqlari sohasida o'qitish va tarbiyalashda ijobiy dinamikaga erishildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mamlakat fuqarolari aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi ishlarda ijobiy o'zgarishlarni qayd etmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizning xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv-energetika, transport, madaniy-gumanitar sohalardagi xalqaro munosabatlarning teng huquqli ishtirokchisi sifatidagi mavqei va roli sezilarli darajada oshganligi ham ta'kidlangan.

O'zbekiston nafaqat yaqin xorijdagi an'anaviy hamkorlari bilan rishtalarni mustahkamlamoqda, balki ularning geografiyasini kengaytirib, yangi aloqalar o'rnatmoqda. Ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va zamonaviy tahdid hamda xatarlarga qarshi kurashish maqsadida mamlakatimizning xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi faolligini kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etayotir.

Respondentlarning fikricha, o'ttiz ikki yillik mustaqil taraqqiyot davrida O'zbekistonda yashayotgan barcha xalq va millatlar vakillari o'rtasida tinchlik, do'stlik va o'zaro anglashuv saqlanib qolgani alohida tahsinga loyiqdir. Fuqarolar O'zbekiston Respublikasining millatlararo munosabatlar sohasidagi davlat siyosati konsepsiyasining amalga oshirilishini millatlararo va dinlararo munosabatlarda barqarorlik omili, deb hisoblaydilar.

Jamoatchilik fikri so'rovi davomida o'zbekistonliklar mamlakatimiz yuqori ko'rsatkichlarga erishgan sohalar, ayniqsa, ularda mamnuniyat va faxr hissini uyg'otadigan samarali va natijaga ega bo'lgan yo'nalishlar aniqlandi.

Erishilgan yutuqlar qatorida shahar va qishloqlar qiyofasini yaxshilash, zamonaviy va qulay turarjoy binolari, ijtimoiy infratuzilma ob'yektlarini qurish, fuqarolarning, ayniqsa, chekka hududlarda ichimlik suvidan, elektr energiyasi, tabiiy gaz, telekommunikatsiyalardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, shuningdek, yo'llar, avtomagistrallar, zamonaviy yo'l kesishmalari va ko'priklar qurilishi borasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari qayd etildi.

Fuqarolarning fikricha, sezilarli ijobiy o'zgarishlar ta'lim tizimiga, ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilashga, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, liseylar, kollejlar va oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiqot mamlakat aholisi tomonidan inson manfaatlarini himoya qilish sohasida erishilgan natijalar yuqori darajada baholanayotganidan dalolat beradi.

**"Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.**

Sirojiddin VOHIDOV olgan surat.

Bayram shukuhi

# KEKSA AVLOD VAKILLARIGA EHTIROM

*O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasi respublika boshqaruvi tomonidan urush va mehnat faxriylari respublika pansionatida "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida Vatanimiz mustaqilligining 32 yillik bayramiga bag'ishlab xayriya dasturxoni yozildi. Unda "Nuroniy" jamg'armasi vakillari, mehnat faxriylari, nuroniylar, keng jamoatchilik va pansionatda istiqomat qilayotgan keksa avlod vakillari jam bo'ldi.*

Tadbirda mamlakatimizda urush va mehnat faxriylariga, keksa avlod vakillariga ko'rsatilayotgan e'tibor, e'zoz, ularning yashash sharoitlarini yaxshilash va salomatliklarini asrash uchun amalga oshirilayotgan islohotlar o'z samarasini berayotgani haqida so'z yuritildi. Bu dargohda yashayotgan keksa avlod vakillariga "Nuroniy" jamg'armasi respublika boshqaruvining bayram tabrigi o'qib eshittirildi.

— Istiqlolimiz shodiyonalari har bir qalbga ajib ko'tarinkilik, surur va shukuh ulashmoqda, — deydi pansionat direktori Farangiz Akramova. — Pansionatimizda ham bugun katta bayram. Hozirgi kunda bu dargohda 145 nafar yakka-yolg'iz, o'zgalar parvarishiga muhtoj, birinchi va ikkinchi guruh nogironi bo'lgan nuroniylarimiz to'liq davlat ta'minotida yashaydi. Ularga 90 nafar xodimimiz g'amxo'rlik qilib kelmoqda.

— O'zim ona tili va adabiyot o'qituvchisi bo'lganman, maktab-internatda ilmiy mudir bo'lib ishlaganman, — deydi salkam bir asr yashab qo'ygan, 94 yoshli onaxon Fotima Karimova. — Qilgan mehnatlarim zoye ketmadi, davlatimizning yuksak e'tiboridan bahramand bo'ldim. "Xalq maorifi a'lochisi"man. Bir qator orden-medallar bilan taqdirlanganman. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga berilgan imtiyozlardan men ham foydalanaman. Bu yerda davlatimiz tomonidan barcha qulay sharoitlar yaratilgan. Bepul dorilar olamiz. Dam olishimiz, sog'lig'imizni tiklashimiz uchun hamma narsa bor. Men davolanishga kelganman. Shifokorlar baraka topishsin, imkoniyat darajasida yaxshi qarashyapti.

Tadbir ishtirokchilari davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rliklar uchun minnatdorlik bildirib, duolar qilishdi.

Diltortar kuy-qo'shiqlar xayriya tadbiriga fayz bag'ishladi.

**"Xalq so'zi".**

РЕКЛАМА




Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-rakam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 841.32 145 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

ISSN 2010-8788

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi masul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Soyibnazarov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'zA yakuni — 00.05 Topshirildi — 00.40 1 2 3 4 5 6